

Sarimsoq (*Allium sativum* L.)-o‘simligini agratexnikasi va qishloq xo‘jaligidagi ahamiyati

UrDU ekologiya va hayot faoliyati kafedrası dotsenti Babajanova Sanabar
Yuldashbayevna

UrDU biologiya kafedrası magistranti Saydimova Muxayyo Normatovna
UrDU Bioinjeneriya fakulteti 3-bosqich talabasi M.S.Saparbayeva.

Annotatsiya: Ushbu maqolada sarimsoq (*Allium sativum* L.) o‘simligining oziq-ovqat va dorivor mahsulot sifatida turli xil kasalliklarni davolash uchun ishlatilishi, uning biokimyoviy tarkibi haqida ma‘lumotlar keltirilgan. Sarimsoq hozirgi kunda eksportbob ekinlar qatoriga kirganligi uchun uni ekib yetishtirishda qo‘llaniladigan agratexnologik chora tadbirlari haqida hamda sarimsoqning bioekologik xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: Sarimsoq (*Allium sativum* L.) o‘simligi, oziq-ovqat va dorivorlik xususiyati, kimyoviy tarkibi, ekish muddatlari, ekish meyorlari, sugorish va oziqlantirish tartibi, sarimsoq agrotexnikasi.

Respublikamizda sabzavot mahsulotlarining yillik me‘yorini 164 kilogrammgacha oshirish ko‘zda tutilmoqda. Aholining ehtiyojini to‘la qondirish uchun mamlakatimiz bo‘yicha har yili o‘rtacha 4,0-4,2 mln tonna sabzavotlar, 2,4-2,5 mln tonna poliz mahsulotlari va 1,2-1,3 mln tonna kartoshka ishlab chiqarilmog‘i lozim. Yangiligida iste‘mol qilinadigan sabzavotlar eng katta oziq-ovqatlik qimmatiga ega bo‘ladi.

Sarimsoq (*Allium sativum* L.) oziq-ovqat sifatida qadimdan ishlatilib kelinayotgan sabzavot ekinlaridan biri hisoblanadi. Sarimsoqni asosan kundalik ovqatlarga, salatlariga ishlatish mumkin yoki shundayligicha o‘zini iste‘mol qilsa ham bo‘ladi, bundan tashqari sabzavotlardan tuzlama tayyorlashda xam ishlatilib kelinadi. Qadim zamonlardan beri odamlar sarimsoqdan turli kasalliklarga qarshi shifobaxsh o‘simlik sifatida foydalanib kelishganlar. Olimlar sarimsoq tarkibida bakteriyalarni yo‘qotuvchi fitonsidlar borligini xam aniqlaganlar. Sarimsoqning kimyoviy tarkibida (har 100g sarimsoq tarkibida) 0,5 g efir moyi, 64,7% suv, 6,76% azotli xamda 28,31% azotsiz moddalar, 0,77% kletchatka va 1,44% kul moddasi, 10-19 mg % S vitamin mavjud. S vitamini ayniqsa uning bargida ko‘proq bo‘ladi. Sarimsoqning o‘ziga xos o‘tkir hidi bo‘lib u sarimsoq tarkibidagi efir moylarining asosini tashkil qiladigan diallil-dissulfid moddasi tufaylidir. Meditsinada fitonsid moddasini olish uchun sarimsoqning efir moyidan foydalaniladi. Ovqatga ishlatiladigan sarimsoqning tarkibida 0,275-0,375 mg efir moyi mavjud. Shuning uchun xam tarkibida vitamin S va fitonsidlar ko‘p bo‘lgan xam ozuqabob, xam dorivor o‘simlik bo‘lmish sarimsoq maydonlarini tobora kengaytirish maqsadga muvofiqdir.

Sarimsoq mahalliy sharoitlarga tez ko‘nikadigan o‘simliklardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham mahalliy navlarni yoki sharoitga moslashgan, chiniqqan navlarni ekish tavsiya etiladi. Aks holda sarimsoq o‘zining xususiyatlarini yo‘qotadi. Sarimsoq navlari past



haroratda ko‘kara boshlaydi, biroz sovuq haroratga chidamli hisoblanadi. Unumdor yerlarda undan mo‘l hosil olish mumkin.

Sarimsoq navlari sovuqqa chidamli bo‘lib u hatto +3, +5°S da ham ko‘karib chiqa oladi va -7, -8°S sovuqda ham nobud bo‘lmaydi. Sarimsoq rivojlanishining dastlabki davrlarida 5-10°S da, pallalar hosil qilayotgan davrda 15-20°S, hosili yetilayotgan davrda esa 20-25°S da yaxshi o‘sadi. Harorat 25°S dan yuqori bo‘lganda o‘simlik ildizlarining o‘sishi to‘xtab qoladi. Shuni ta’kidlash lozimki janubiy ya’ni qurg‘oqchilik mintaqalarda yetishtiradigan sarimsoq navlari issiqlikka chidamli hisoblanadi.

Sarimsoq (*Allium sativum* L.)-butun dunyoga tarqalgan dorivor hamda oziq-ovqat sifatida ishlatiladigan o‘simlikdir. Ma’lumki, har qanday qishloq ho‘jalik ekinlaridan yuqori va sifatli hosil olish uchun shu ekinga mos dalani tanlash hamda uning o‘ziga xos agrotexnikasini qo‘llash juda muhim hisoblanadi. Shundan kelib chiqqan holda tajribalarimizda sarimsoqning ekish muddati, usuli, sug‘orish tartibi va ma’dan o‘g‘itlarga bo‘lgan talabi kabi agrotexnik tadbirlari o‘rganildi.

Biz tajribalarimizda Sarimsoq (*Allium sativum* L.) o‘simligini Xorazm vohasi o‘tloqi allyuvial tuproqlari sharoitida avgustning uchinchi o‘n kunligida pallasidan ekib yetishtirdik. Tajriba maydonlarida birinchidan shudgor qilingan maydonlarni ekish uchun tayyorlash ishlari amalga oshirildi. Bunda asosan shudgorlangan tajriba dalasi boronalanib, mola bosiladi. Tuproqqa asosiy ishlov berishdan oldin variantlar bo‘yicha fosforli o‘g‘itni 70 foizi, kaliyli o‘g‘itlarni 100 foizi yerga solinadi. Ekishdan oldin tuproq 18-20 sm chuqurlikda chizellanib, borona qilindi. Avgust oyining uchinchi o‘n kunligida sarimsoq (*Allium sativum* L.) o‘simligi gektariga 50-100 kg dan urug‘ sarflanib tadqiqot o‘tkaziladigan maydonga ekildi. Ekish ishlari ikki xil muddatda ya’ni 20- avgust va 1-sentyabr kunlari maxsus seyalkalar yordamida o‘tkazildi. Shuni e’tiborga olish lozimki ekishga tanlab olingan har bir pallaning og‘irligi 6-9 g dan kam bo‘lmasligi kerak. Sarimsoq (*Allium sativum* L.) o‘simligi texnika vositalaridan foydalanib lentasimon ikki yoki uch qatorlab ekiladi. Bunda lenta va qator oralig‘i 7 sm bo‘lishi lozim, qatorlab ekilganda ulaming oralig‘i 15 sm, ikki qatorli esa 20 sm bo‘lishi kerak. Sarimsoq (*Allium sativum* L.) o‘simligini biz tajribamizda 50 + 20 x 5-6 sm sxemasida ekdik. Shunday sxemadan foydalanilganda har gektar yerda sarimsoq o‘simligining soni 450-600 ming tup bo‘ladi. Sarimsoq bo‘lakchalari ekilgandan so‘ng tajriba maydoniga urug‘ suvi, gektariga 400 m³ dan suv sarflab sug‘orish ishlari olib borildi va nihollar bir tekis qilib undirib olinadi. Sarimsoqni vegetatsiya davrida variantlarga mos ravishda 100% azot, 30% fosforli o‘g‘itlar qo‘llanib oziqlantirish o‘tkazildi.

Tajribalarimizda Sarimsoq (*Allium sativum* L.) o‘simligi kuzda 2 marta, bahorda esa 4 marta sug‘orildi. Sarimsoq (*Allium sativum* L.) o‘simligi ekilgan egatlar vegetatsiya davomida 4 marta kultivator yordamida yumshatiladi.

Sarimsoq(*Allium sativum* L.) o‘simligini birinchi oziqlantirish uni ekishdan oldin va ekishdan keyin amalga oshirildi, ikkinchi marta oziqlantirish 3-4 ta barglarni hosil qilganidan keyin fosforli va azotli o‘g‘itlarni birga sepma usulda qo‘llanildi. Tajriba maydonidagi begona o‘tlarga qarshi kimyoviy usulda OBX -1,4 apparati yordamida granstor preparati bilan ishlov berildi. 15 mart kuni 50 % azot variantlarga mos ravishda berildi. Gektariga 600m³ suv sarflab 4 marta sug‘orildi, 4 marta mexanizatorlar yordamida dala begona o‘tlardan tozalandi. 20 aprel kuni 50% azot sarflab oziqlantirish ishlari, 22 aprel kuni esa 2- sug‘orish ishlari o‘tkazildi. Sarimsoq hosili to‘la yetilgach, hosilni yig‘ishtirish ishlari olib borildi.

Demak xulosa qilib aytganimizda Sarimsoq(*Allium sativum* L.) o‘simligini yetishtirishda quyidagi asosiy agrotexnik tadbirlarni olib borishimiz kerak: sarimsoqni begona o‘tlardan tozalash, sarimsoq ko‘chatlari tagini yumshatish, madanli o‘g‘itlar bilan oziqlantirish va sug‘orish. Bu kabi agrotexnik chora tadbirlar tajribamizning ish dasturida belgilangan tartiblarga asoslangan holda o‘tkazildi. Jumladan tuproq namligini hisobga olgan holda chipoletti suv o‘lchagichi asbobi yordamida suv sarfini hisoblab keyin sug‘orish ishlari o‘tkazildi. Agrotexnik chora tadbirlar bosqichma-bosqich o‘z vaqtida olib borilgandan so‘ng yoz oylarining boshida, ya‘ni iyul oyiga kelib yetilgan sarimsoq hosilini, har bir variantning 5 nuqtasidan 1 m² dagi sarimsoq navlari qo‘lda kavlab olish yo‘li bilan yig‘ishtirib olinib hisob kitob ishlari olib borildi.

Qishloq ho‘jalik ekinlaridan yuqori va sifatli hosil olish uchun agrotexnikani ahamiyati yuqori bo‘lishini hisobga olgan holda, har bir tajriba variantlarida agrotexnik chora tadbirlar sifatli ravishda, o‘z vaqtida olib borildi.

Agrotexnik chora tadbirlar qo‘llanilgan holda yetishtiriladigan qishloq xo‘jalik ekinlari serhosil bo‘lib, biologik faol moddalarga boy bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O‘. Ahmedov, A. Ergashev, A. Abzalov, M. Yulchiyeva, D. Mustafakulov. Dorivor o‘simliklar yetishtirish texnologiyasi .
2. X. N. Atabayeva, J. B. Xudayqulov O‘simlikshunoslik.
3. Ostonaqulov T.E., Zuev V.I., Qodirxo‘jayev O.Q. Sabzavotchilik.
4. Zuev V. I., Abdullayev A. G. Sabzavot ekinlari va ularni yetishtirish texnologiyasi.
5. Bo‘riyev X. Ch, Zuev V. I., Qodirxo‘jayev O. Q., Muhamedov M. M. Ochiq joyda sabzavot ekinlari yetishtirishning progressiv texnologiyalari.

